











Davlat ekologik ekspertizasi markazi
tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT


1.  O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.
2.  O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ugom daryosining tabiiy gidrologik rejimi va biologik xilma-xilligini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 4-maydagi PQ-164-son qarori qabul qilindi.
3.  Vazirlar Mahkamasining "Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida "Ekologik transport" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 28-noyabrdagi 750-son qarori qabul qilindi.
4.  Vazirlar Mahkamasining "Atrof-muhitga ta'sirni baholashning yangi mexanizmlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 11-maydagi 234-son qarori qabul qilindi.
5.  Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan 8 ta Milliy standartlar loyihalari ishlab chiqilib, O'zbekiston standartlar instituti tomonidan tasdiqlandi.
6.  Ekologik ekspertiza va atrof-muhitga ta'sirni baholash yo'nalishi bo'yicha 2 ta uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, tasdiqlandi.
7.  Atrof-muhitga ta'sirni baholash, ekologik ekspertiza va strategik ekologik baholash yo'nalishlarini takomillashtirish maqsadida Koreya atrof-muhit instituti bilan anglashuv memorandumi imzolandi.
8.  Sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarni malakasini oshirish maqsadida Belarus Respublikasi Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, Respublika davlat ekologik ekspertizasi, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi bilan hamkorlik to'g'risidagi Memorandum imzolandi.

9.  Xalqaro ta'sirni baholash assotsiatsiyasi (IAIA Italiya), YeXHT va Markaz o'rtasida atrof-muhitga ta'sirni baholash sohasida sun'iy intellektni joriy etishda hamkorlik memorandumi imzolanishiga kelishib olindi.

10.  Tadbirkorlik subyektlari davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olishda byurokratik to'siqlardan xoli etish, tizimni shaffofligini va ochiqligini taminlash hamda ularga qulayliklar yaratish, shuningdek, inson omilini to'liq cheklash maqsadida **Atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi "eco-service.uz"** joriy etildi.


Misol uchun: Unda tadbirkorlik subyetlari ekologik ekspertizadan o'tkazish uchun ariza topshirishdan tortib xulosa olish davrigacha bo'lgan jarayonlar to'liq raqamlashtirilib, ular tomonidam ushbu bosqichlarni to'liq onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgan.


Axborot tizimi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasi bilan hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bilan to'liq integratsiya qilingan.


11.  Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan **2023-2025-yillar davomida 102 999 ta davlat ekologik ekspertizasi xulosalari taqdim etilgan.**

Misol uchun: Korxonalar va tashkilotlarga 2023-yilda **21 471 ta**, 2024-yilda **31 908 ta** va 2025-yilda **49 620 ta** davlat ekologik ekspertizasi xulosalari berilgan.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosalarini ochiq ma'lumotlar bazasiga joylashtirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu kunga qadar **120 mingga yaqin** xulosa joylashtirilgan.

12.  Davlat ekologik ekspertizasi markazi xalqaro sertifikatlash tashkiloti "**CERT International**" (*Slovakiya*) tomonidan o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining mustaqil auditini muvaffaqiyatli yakunlab, **ISO 37001:2016** xalqaro sertifikati olindi.

13.  Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida "**Ekologik transport**" tizimini joriy etildi.

14.  Pilot loyiha doirasida ekologik ekspertiza qonunchiligiga oid ma'lumotlarni sun'iy intellekt yordamida o'zbek va rus tillarida ovozli shaklda taqdim etuvchi Telegram-bot ishga tushirildi.



ecoekspertiza.uz
eco-service.uz



t.me/ecoekspertiza



facebook.com/ecoekspertiza



youtube.com/@Davlatekologikekspertizasimark